

NAFS TARBIYASI

Xabibullayeva Nigora A'zamjon qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti 3- kurs talabasi

Ibrohimova Yulduzxon Rahmiddinjon qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti 3- kurs talabasi

Annotasiya: *Ushbu maqolada nafs haqida ba'zi qarashlar, nafs martabalari, nafsni tiyish borasidagi fikrlar yoritilgan bo'lib, bularning asosi Abu Homid G'azzoliyning, "Mukoshafst ul-qulub" hamda Muhammad Zohid Qutquning "Nafs nimadir" asarlari asosidadir.*

Kalit so'zlar: *nafs, nafs martabalari, nafi ammora, nafi lavvoma, nafi mulhama, nafi mutmainna, nafi roziya, nafi marziya, nafi sofiya.*

Nafs (arabcha qalb, ko'ngil; inson; maqsad, intilish; g'urur, mag'rurlik) – 1) yeyish-ichish va mol-dunyoga bo'lgan ehtiros; 2) shahvoniy hirs. Nafs insonning moddiy o'zligi, "men"idir. Tilimizda uning muqobili mavjud emas. Nafs izidan ergashadigan inson uning quliga aylanadi. Inson nafsni vaqtida jilovlay olmasa, moddiy va ma'naviy xatolarga yo'l qo'yadi, oxir-oqibat ayanchli ahvolga tushib qoladi. Nafsni tiyishning asosiy omili ma'naviy tarbiyadir. Ma'naviyat haqida fikr yuritar ekanmiz, bu masalani atroflicha va chuqur tahlil etishimiz, uning faqat o'zimizga ma'qul, ijobiy tomonlari bilan cheklanib qolmasdan, ana shunday murakkab jihatlarini ham nazardan chetda qoldirmasligimiz lozim, lo'nda qilib aytganda, bu o'rinda gap bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki xil qarash haqida bormoqda. Birinchisi – o'z nonini halol mehnat bilan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf yetkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazzatlari, balki oxirat haqida, uning obod bo'lishi haqida o'ylab yashaydigan insonlarga xos hayotiy qarashlar. Ikkinchisi – bunga mutlaqo qarama-qarshi bo'lgan yondashuv, ya'ni hayotning ma'no-mazmuni haqida boshqotirmasdan, bunday savollar bilan o'zini qiynamasdan, faqat nafs qayg'usi va o'tkinchi hoyu havasga, huzur-halovatga berilib, yengil-yelpi umr kechiradigan, o'zining ota-ona va farzand, el-yurt oldidagi burchiga umuman befarq bo'lib yashaydigan odamlarning fikr-qarashlari. Mana shunday ikki xil dunyoqarash asosida paydo bo'ladigan og'ir savollar odamzod ongli yashay boshlagan zamonlardan buyon uni o'ylantirib, qiynab keladi. Darhaqiqat, nafs insonning o'zi yoki o'ziga yaqin insonlarning manfaatini deb ko'pchilik manfaatini e'tiborga olmasligi, bu yo'lda o'z nafi ortidan ketishi yoki boshqa bir manfaatdor tomon bilan til biriktirishi, ko'pchilik zarari hisobiga moddiy boylik yoxud mavqe orttiradigan qaror qabul qilishi kabi hollarda namoyon bo'ladi.

Sharq mutafakkirlarining e'tiroficha, shaxsiy manfaat bilan jamiyat manfaati uyg'unligiga erisha olmagan inson xalq va davlat xizmatida uzoq vaqt qola olmaydi. Fuqarolar nazari, jamoat fikri uni bu sharafligi, ayni paytda, g'oyat mas'uliyatli faoliyatga noloqiq ekanini oshkor etmay qo'ymaydi. Shuning uchun mas'ul shaxslar, yetakchilar, eng avvalo, nafs tarbiyasi maktabini o'tagan bo'lishi kerak. Alisher Navoiy bu haqda shunday yozgan: "Chun menga lutf etti shah devonda muhr, Bu edi eldin quyi muhr urmog'im. // Kim g'ururi nafs sarkash ma'nig'a, Barchadin bo'lg'ay quyi o'lturmog'im. // Chun shikasti nafs hosil o'lmadi, // Mundin o'ldi muhrni sindurmog'im". Shoir nazarida inson nafsini jilovlay olmas ekan, ta'ma uni yolg'on va ochko'zlikka undayveradi. Shuning uchun har bir inson, eng avvalambor, ta'madan uzoq bo'lishi kerak. Shoh devonida muhr urishni topshirgan inson davralarning to'rini emas, poygagini ko'zlab, nafsini o'sha poygakda turishga o'rgatishi kerak. Agar nafsidan g'olib bo'lolmas ekan, "muhrni sindurmog'i" afzaldir. Nafs insonning mohiyatiga yarashmaydigan qiliqdir. Zero, ta'ma uchun tubanlashish, o'zini suvga-o'tga urish yaramaydi. Dono xalqimiz nafs quliga aylangan, o'z manfaatiga boshqalar hisobidan erishishni ma'qul ko'radigan, faqat o'zini o'ylaydigan kimsadan Xudoning o'zi asrasin, deydi. Bag'rikeng, halol, vijdonli, mehr-oqibatli, el-yurtning g'amu tashvishi bilan yashaydigan kishilarni boshiga ko'taradi.

Quyida Muhammad Zohid Qutquning "Nafs nimadir" kitobidan olingan nafs martabalariga haqida muallif tomonidan keltirilgan umumlashtirilgan xulosalarni keltiramiz.

Nafslarning 7 ta martabasi bo'lib, ularning sifatlari 45 tadir. Nafs martabalariga quyidagilar kiradi: nafs ammora, nafs lavvoma, nafs mulhama, nafs mutmainna, nafs roziya, nafs marziya, nafs sofiya.

1. Nafs ammora

Nafs ammora deyilgan badbaxt nafs boyigan sayin taltayadi! Bilimi oshgani sayin kibri, g'ururi ham ortadi! Biror lavozimni egallagan bo'lsa, endi uning yoniga borish mumkin bo'lmay qoladi!

Bu nafs ammora deyilgan nafsni yosh bir bolaning holatiga o'xshatsak, unchalik xato qilmaymiz deb o'ylayman. Chunki bola aqli raso bo'lmagani sababli ko'ngli tusagan hamma narsani qilishga urinadi. Haromni bilmaydi, halolni bilmaydi, topganini yeyishdan qaytmaydi.

Ushbu nafs ammora 12 yomon xulqdan tashkil topadi: boshi kufr, ketidan shirk, g'aflat, jaholat va o'zini yaratgan zotga nisbatan bandalik vazifasini, ya'ni ibodatni qilmaslikdan iborat bo'lgan "katta ketishdir". Kibr alomatlari ushbu asosning bolalaridir. U kattalashgani sayin bu bolalar ham u bilan birga

kattalashib boraveradi. Agar isloh qilishga harakat qilinmasa shu tarzda o'lib ketadi.

2. Nafsi lavvoma

12 yomon xulqning ikkitasi bo'lgan shirk va kufrdan ilm va amal bilan Allohning hidoyatiga noil bo'lib, shu orqali qutula olgan kishi nafsi lavvomaga o'tadi. Nafsi lavvoma esa, boshqa o'n yomon xulqni o'zida saqlagani uchun hech ham maqbul bir nafs emas.

Odam goh-goh o'ziga kelgan nadomat va pushaymonlar bilan bir oz sergak tortsa ham, ushbu yomon xulqlar osongina tashlab yuborish mumkin bo'lgan narsalar emaski, inson darhol yaxshi bir insonga aylanib qolsa. Bu xulqlarning har birini tashlash uchun uzoq muddat riyozat qilish, zikr qilish, ilm bilan shug'ullanish va yana Allohning lutfiga noil bo'lish talab qilinadi! Bunga muvaffaq bo'lgan baxtiyorlar juda nodir zotlardan desak joiz bo'ladi!

3. Nafsi mulhama

Agar banda Allohning izni bilan boshini ushbu nafsi lavvomadan va uning jirkanch hollaridan qutqara olsa, nafsi mulhamaga o'tishga muyassar bo'lishi mumkin.

Nafsi mulhama ilm, tavozu, sabr, tavba, shukr, saxiylik, qanoat, chidamlilik kabi 8 ta katta asosga bog'liq.

Ilmsiz hech narsa bo'lmaydi.

Tavozu deyilgan narsa ham o'z-o'zidan bo'lmaydi.

Sabr deyilgan ne'matni oson deb o'ylaysanmi?

Har kim bilan chiqisha olish va hech kimni ranjitmaslik ushbu sabrga bog'liq. Sabri bo'lmagan kishi darhol har kim bilan janjal, to'polon qilib, o'rtaning halovatini qochiradi.

Ba'zi insonlar har qancha tavba qilsa ham tavbasida sodiq tura olmaydi.

Shukr esa, ne'matlarning kattasi hisoblanadi. Banda Alloh taoloning bergan cheksiz ne'matlariga yarasha shukr qila olsa, "Albatta sizlar(ning ne'matingiz)ni orttiramani" (Ibrohim surasi, 7-oyat) siriga mazhar bo'lib, ne'matlari ko'payaveradi.

Saxovat esa, bir ilohiy irodadir. Hatto ushbu xulq egasi faqir bo'lsa ham yemaydi, yediradi. Bu esa unga yetib ortadi.

Qanoat esa alohida bir davlat. Insonning daromadi ko'p bo'lishi mumkin. Ammo qanoat egasi esa, qanoatni tashlamay, ortganlarini faqirlarga berishi mumkin. Shu shaklda boy bilan faqir orasida bir ko'prik qurilgan bo'ladi. Faqirning ko'zi boyning molida bo'lmagani singari, uning haqqiga xayrli duolar qilishdan ham to'xtamaydi. Shuning o'zi o'sha boyga yetarli emasmi? Vaholanki, bugun boy bilan faqir orasida oshib o'tmas bir devor bor. Sababi esa, qanoatsizlik bilan faqirlarni e'tiborga olmaslikdir.

Sakkizinchi xulq esa, tahammul (chidamlilik)dir. Ya'ni boshqalardan yetgan aziyatlarni sabr bilan qarshilash, aziyat qilganlarni yaxshi amal bilan uyaladigan holatga olib kirish.

O'zini mazammot qilib, yomon so'zlar aytadigan bir kishiga Hasan Basriy hazratlari bir laganga juda yaxshi xurmoldan to'ldirib, hadya qilibdi. Buni olgan kishi ham qilganiga pushaymon bo'lib, uzr so'ragan ekan. Agar Hasan Basriy hazratlari quvvat va qudrat egasi sifatida u kishini jazolaganida unda bu nadomat va pushaymonlik yuzaga kelmas edi.

4. Nafsi mutmainna

Nafsi mulhama ham yetarli darajada asosiy, chiroyli xulqlarni o'z ichiga olgan bo'lsa ham ahli insof bularni komil insonlar qatoriga kiritishmagan. Chunki bularning ilmi bor bo'lsa ham amallarida noqislik bo'lganidan ular komil insonlar qatoriga qo'shilmagan. Agar Alloh taoloning yordami bilan bundan ham o'ta olsalar, ammo bu ko'p riyozat va ibodat qilishni talab qiladi, nafsi mutmainnaga erishadilar.

Nafsi mutmainnada ilm bilan birga amal ham bor. Bu xildagi nafs egasi har masalada Allohga tavakkul qiladi, ochlik va riyozatda davomli bo'lish bilan birga ibodatni ham ko'paytiradi. Chuqur o'yga toladi va bu bilan turli xil olmos va yoqut singari javohirlarni to'plab, atrofidagilarga ham tarqatadi. Bunday go'zal xulq egasi va nafsi mutmainna darajasiga yetishgan bo'lsa ham, har ishning negizi bo'lgan ixlossizlik xavotiri bu yerda ham mavjud. Shuning uchun u har qancha kamolot martabasiga yaqinlashgan bo'lsa ham, nafsi mutmainnadan qutulib, nafsi roziyaga yetishishga harakat qilishi lozim.

5. Nafsi roziya

Nafsi roziyaga ega bo'lgan kishi ixlosli, behudaga gapirmaydigan, zikr bilan mashg'ul, zuhd egasi va shubhali narsalardan juda ehtiyotkor kishi bo'ladi. Shu shaklda ham Alloh taoloning cheksiz va turli karomatlariga mazhar bo'ladi. Bu nafsning egasini ahli kamol desa arziydi. Alloh taolo barchamizga shunday go'zal xulqlarni nasib aylasin! Omin!

6. Nafsi marziya

Bundan keyingi nafs darajasiga nafsi marziya deyilib, bu darajada banda Allohdan, Alloh taolo ham bandasidan rozi bo'ladi.

Bu darajada bo'lgan kishilar Allohdan boshqasini o'ylamaydilar!

Allohning maxluqiga lutf bilan muomala qiladilar!

Maqsadlari Alloh taologa yaqin bo'lish!

Nafsi marziya sohiblari Parvardigori olam yaratgan barcha narsalardagi hikmatlar haqida o'ylaydi va Uning taqsimotiga doimo rozi bo'lganligi sababli, Allohning ilmu ma'rifat eshigi ham ularga ochiq bo'ladi.

7. Nafsi sofiya

Nafsi komila va soliha ham deyiladi. Bu maqom Alloh taoloning sevgan bandalarida bo'ladigan sirlar maqomi, Payg'ambarlar maqomidir! Yo Robb, shifoatlariga noil qilgan!

Abu Homid G'azzoliyning " Mukoshafaatul qulub" asarida esa nafsga shunday ta'rif berilgan:

Ey inson, bilib quli, doim yomonlikni xohlab turadigan NAFS senga shaytondan ham dushmanroqdir. Shayton nafsingning xoyu- havasi bilan bo'yningga minib olib, seni Allohning yo'lidan chiqarishi mumkin. Nafsing esa seni behuda amallar va quruq xayollar bilan aldab qo'yur. Chunki nafs tabiatan tinchlik-osudalikni, loqaydlik, g'aflat va beparvolikni yoqtiradi va umrni tanballik bilan o'tkazishni istaydi.

Fikrlarni xulasalaydigan bo'lsak, nafsni yengish, uning so'zlariga kirmaslik, nafsning quruq xoyu-havaslariga uchmaslik borasida ko'plab sinovlar bosib o'tiladi. Nafsni yengishesa har bir insonning o'z irodasiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Homid G'azzoliy " Mukoshafatul qulub" "Adolat" T- 2002
2. Muhammad Zohid Qutqu " Nafs nimadir "
3. Boshqa internet ma'lumotlari.

